

BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Faxriddinova O'g'iloy Rizo qizi

NAVDPI *Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotsatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlod tarraqqiyot -kafolati ekanligi yoshlarning har tomonlama yuksak ma'naviyatli bo'lishi hamda ta'lim tarbiyaning pedagogik va psixalogik xususiyatlari haqida bayon etilgan. Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi pedagog va psixologlar oldidagi muhim masala ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, barkamol avlod, ta'lim, tarbiya, oilaviy tarbiya, pedagogik yondashish, psixalogik yondashish, uchunchi renassans.

Annotation: This article describes the harmonious generation-a guarantee of a comprehensive high spirituality of young people, as well as the pedagogical and psychological features of educational education. It was noted that youth education in New Uzbekistan is an important issue facing educators and psychologists.

Keywords: New Uzbekistan, harmonious generation, education, upbringing, family education, pedagogical approach, psychological approach, forchie renassans.

Аннотация: В этой статье рассказывается о том, что гармоничное поколение является гарантом развития и всесторонней духовности молодежи, а также о педагогических и психологических особенностях воспитания. В новом Узбекистане было заявлено, что воспитание молодежи является важным вопросом перед педагогами и психологами.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, гармоничное поколение, образование, воспитание, семейное воспитание, педагогический подход, психологический подход, третьье возрождение.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odo-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarmoqda. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado



berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz.

Bugungi kunda pedagoglarning oldida tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va nima belgilab beradi? degan haqli savol turadi. Tarbiya bilan shug'ullanuvchi har bir pedagog o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadini aniq tasavvur etishi va bu maqsadni muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish zarur, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak degan savollarni tasavvur etish lozim. Bu maqsad jamiyatning komil insonni tarbiyalashdek maqsadiga mos kelishi kerak. Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, ahloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Bolaning oiladagi tarbiyasida ota-onaning obro'si muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining o'zlariga xos psixologik xususiyatlarini yaxshi bilib olishlari zarur. Kichik yoshdagi bolalar maktab ostonasiga oyoq bosishlari bilan o'yin faoliyatini bosib o'tadi. O'qituvchi bilan notanish bolalar bilan muomila qilish ular uchun noqulay vaziyatni vujudga keltiradi. Bolalarga oilada talab bir xil bo'lishi yaxshi natija beradi. Ularga noto'g'ri yoki qalbaki ma'lumotlar berishdan saqlanish ma'qul. Bolaga yolg'on javob berish orqali ota-onaning farzand oldida obro'si pasayadi. Bolalar tasavvurida boshlang'ich sinf o'qituvchisi donishmand, bilimdon sifatida namoyon bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar tarbiyaga beriluvchan hamda kishilarga ishonuvchan bo'ladilar. Ota-onalar ularning bu xususiyatlarini e'tiborga olgan holda munosabatta bo'lsalar oilada totuvlik qaror topadi. Ota-ona ham oilada katta pedagog vazifasini bajaradi chunki farzand tarbiyani birinchi bo'lib oilasidan ota-onasidan oladi.

Pedagogik psixologiyada tarbiya tushunchasi –shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy aktiv ishtirok etishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmui. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga ega. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari shug'ullanadi. Pedagogikada "shaxs" tushunchasi "inson" tushunchasidan farqli o'laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatish natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy (olam) xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va hokazo), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatan,



xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilish, imonli bo'lishi, insonni shaxs darajasiga ko'taradi.

Tarbiya vositalari sifatida tashkil etilgan va etilmagan ta'sirlar tushuniladi. Ular yordamida bir guruh insonlar—tarbiyachilar boshqa guruh odamlariga - tarbiyalanuvchilarga ma'lum psixologik sifatlar va xulq-atvor hosil qilish maqsadida, aniq qilib aytganda, shaxsga psixologik ta'sir vositasida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchining shaxsiyatini o'zgartirish uchun qo'llanilgan harakatlar tushuniladi. Tarbiya vositalari sifatida o'ziga xos o'rinni kompleks, global va har taraflama o'tkaziladigan ta'sirlar egallaydi. Ular qatoriga, masalan, psixoterapiyani, ijtimoiy- psixologik treningni va boshqa psixokorreksiya turlarini ko'rsatish mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagog o'quvchining psixikasiga alohida diqqat qaratish lozim, chunki ma'lumki, turli xil harakterga ega turli xil tempramentga xos xususiyatlarni ifoda etadi. Pedagog-psixologning yoshlarga o'z biimini va berayotgan tarbiyasi qay darajada yetkazib berish xususiyati muaomala madaniyati, hamda muloqot jarayonida o'z aksini topadi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, 7ta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi.


Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda asrlarga tatigulik islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning ko'lamini bejiz asrlarga bog'layotganim yo'q, albatta. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev uchinchi renessans poydevorini yaratishdek ulug' bir maqsadni boshlab berdilar. "Najot - ta'limda" so'zlari esa Yangi O'zbekistonning brendiga aylandi. Bugungi yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarimizni yanada yuksak marralar sari ilhomlantiradi. Davlatimiz har tomonlama yoshlarimizni ilmi va kasbi-korli bo'lishlarini kafolatlamoqda. Zero, aqlli va ilmi yoshlarga olib borilayotgan islohotlarni to'g'ri anglagan holda imkoniyatlardan unumli foydalana oladilar. Ular o'z kelajak istiqbollariga olib boruvchi porloq yo'lni ko'ra oladilar o'tayotgan vaqtlarini qadrlab hayotlarini mazmun bilan boyitadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida" 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni.

2. . Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. - T.: O'zbekiston, 2017- B





3. Ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol shaxsni shakllantirish va unda tarbiya darslarining o'рни. Наука и инновации, 1(1), 172-175. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32956>

4. Qorayev S.B. Pedagogika. -T.: "Zebo-Print". 2023 y.

5. Абдуллаева, Г. А., & Раджаббоева, Р. А. (2020). "OILA, MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGI" O'QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASH SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 7).

